

Shavkatov Shahzod

Buxoro Davlat muzey qo‘riqxonasi
Tasviriy san‘at muzey filiali rahbari

Annotatsiya: Mazkur maqolada Benkov Pavel Petrovich tasvirlagan Xo‘ja-Zayniddin inshoati tasvirlasi tushurilgan ikki durdona asar mazmun mohiyati, ahamiyati tahlil qilinada hamda O‘rta Osiyoning muhim me‘moriy yodgorliklaridan biri bo‘lgan Xo‘ja-Zayniddin inshoati o‘rganiladi. Uning tarixi, me‘moriy xususiyatlari va ijtimoiy-madaniy ahamiyati haqida ma‘lumot beriladi.

Shuningdek, bu majmuaning zamonaviy turizm va madaniy merosni asrashdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: P.Benkov, Xo‘ja-Zayniddin, rasom, rang, hovuz, tasvir, tasviriy san‘at, O‘rta Osiyo me‘morchiligi, tarixiy yodgorlik, madaniy meros, ziyoratgoh, hovuz.

Mashhur rassom P.Benkov, 20-dekabr 1879-yilda Rossiyaning Qozon shahrida tug‘ilgan. 1885-1901-yillar Qozon rassomlik maktabini a‘lo baholarda tamomlagach 1901-1906-yillar Sank Peterburg Badiiy Akademiyasida, keyinchalik esa Fransiyaning Parij shahridagi “Julyen” nomli Akademiyasida tahsil olgan. Shunindek, U Yevropa davlatlariga Italiya, Fransiya, Ispaniya sayohat qilib, san‘atini yanada boyitgan rasom.

1928-yillarda O‘zbekistonga kelgan rassom O‘zbekistonni ikkinchi vatani deb hisoblagan va asarlarining asosiy qismini shu yerda ijod qilib durdona asarlar yaratgan. U dastlab Buxoro shahrida yashab, ijod qilgan. U 1928-1940 yillarda O‘zbekiston tasviriy san‘atida o‘z o‘rnini topdi. Rassom O‘zbekiston o‘tmishi, xalq hayoti, urf-odatlarini va o‘sha davrning dolzarb mavzulariga bag‘ishlangan asarlar yaratgan.

P.Benkov o‘zining durdona asarlarida maishiy va portret janrlarida o‘zbek xalqining turmush tarzi va an‘analarini real voqeyliklar asosida aks ettirib, shuningdek tabiat manzaralarini yaratishda ham sermahsul ijod qilgan. Buxoroning o‘ziga xos bo‘lgan tarixiy, milliy an‘analari, quyoshli o‘lkaning betakror go‘zalligi rassomning yetuk ijodkor bo‘lib yetishishi uchun katta ahamiyat kasb etadi.


Uning asarlarida asosan Buxoroning qadimiy ko‘chalari, tarixiy yodgorliklari madaniy meros obidalari aks ettirilgan. Ayniqsa eski shahar ko‘chalari, Labi-Hovuz majmuasi hamma Xo‘ja-Zayniddin masjidi o‘sha davrning hayoti haqida gapirgan

go‘yo. Shuningdek, ayni paytdagi davrning o‘zgaruvchanligi impressionistik uslubda yorqin ranglar jilosi orqali aks ettirilganligining guvohi bo‘lamiz.

Hozirda, Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasining tasviriy san‘at fondida P.Benkovning ikki durdona asari **“Xo‘ja Zayniddin hovuzidagi uzumzor hamda Kuzgi uzumzor”** ko‘rgazmada o‘z o‘rniga ega bebaho asarlardan hisoblanadi.

Taniqli rassom P.Benkov, Buxoroga kelgan paytlari “Labi-Xovuz” yonidagi Nodir-Devonbegi madrasasida yashagan. Balkim, uning hovuzni undagi suvni doimiy kuzatishlari sababli, asarlarida Buxorodagi hovuzlarning tasvirini tez-tez uchratamiz. Ayniksa bu holat Benkovning mashxur “Xo‘ja Zayniddin masjidi”ga bag‘ishlab ishlagan asarida namoyon bulgan. Asar kompozitsiyasining asosiy qismini hovuzdagi suv tasviri egallagan va oldingi plandadir.

Masjid tasviri esa ikkinchi planda bo‘lib, gorizont chizig‘ining ustida joylashtirilgan. Vaholanki, kartina masjid nomi bilan atalsada, undagi hovuz tasviri birinchi o‘rinda va uning jozibador moviy-yashil ranglari bilan o‘ziga jalb qiladi. Benkov bu asarida Buxoroning, qolaversa butun O‘rta Osiyoning serquyosh manzarasini yorqin ranglar jilosida jozibador tasvirlagan. Asarda issiq, sariq, sabzirang, yashil rang oxanglari bilan birga, sovuq: moviyrang, ko‘k tusdagi ranglar bir-biri bilan uyg‘unlashib ranglar mutanosibligini hosil qilgan (1-rasm).



Ushbu asarlarda, Pavel Petrovich Benkovni serquyosh o'lkani nafaqat issiq, rangbarang tabiatini, balki uning qadimiy tarixi, xar bir arxetektura yodgorliklari hashamatli minora-gumbazlari, masjid, madrasalari, insonlarining qiyofasi, kiyimlari, tor ko'chalari, ulardagi shinamgina uylar va ayniqsa ichkaridagi xovlilarning ko'rinishlari judayam qiziqtirgan. Shuning uchunmi musavvirning "Kuzgi uzumzor" asaridagi Xo'ja-Zayniddin masjidi ichkari hovlisi tasviri o'ta mohirona ishlangan. Hovlilarning ko'rkamligi, kulrang devorlari, kuz faslidagi tillorang sariq, qizil-sarg'ish tok barglarining quyosh nuridagi jilosi kuchli bir xissiyot bilan tasvirlangan. Asarni uzoq kuzatar ekansiz, go'yoki barglar, xazonrezgi davrida yuqori toklardan uzilib, yuqoridan pastga oxista-oxista giraylanib tushib, oyoq ostidagi shivirlashlari eshitilayotgandek xis-tuyg'ular bilan qamrab oladi. Rassomni maftun etgan bu go'zal yurt, uning ijodidagi katta burulish jarayonidan dalolat beradi (2-rasm)



(2-rasm)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Buxoroyi sharifda joylashgan ushbu qadimiy hovuz bo'yida qurilgan "Xo'ja Zayniddin" masjidini rasom P.Benkov shudarajada ilhomlanganki ranglar koloriddiga hamda o'sha davrni real tasvirda o'z o'rnida qo'ya bilgan. Hovuz suv, suv bo'yidagi tok barglarining nafis egilib tushganligi undagi yorqin ranglar va hovuzdagi suv orqali tovlanishini mohirona tasvirlay olgan.

Axitekturaviy qurilishi, tarixiy ahamiyatga ega ekanligini asarlari orqali tomoshabinga yetkaza olgan. Rasomning asarlarida o'sha davrni yaqol tasvirlanganini yuqoridagi foto suratlarda ham kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Islomovna M. F. et al. DESIGNING THE METHODOLOGICAL SYSTEM OF THE TEACHING PROCESS OF COMPUTER GRAPHICS FOR THE SPECIALTY OF ENGINEER-BUILDER //Journal of Contemporary Issues in Business & Government. – 2021. – T. 27. – №. 4
2. Shirinboy Sharofovich Olimov, Dilfuza Islamovna Mamurova. (2022). Opportunities to use information technology to increase the effectiveness of education. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE), Vol 14, Issue 02. DOI: 10.9756/INT-JECSE/V14I2.345.
3. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2022). Information Technology in Education. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 1(1), 17-22.
4. Olimov, S. S., & Mamurova, D. I. (2022). Directions For Improving Teaching Methods. *Journal of Positive School Psychology*, 9671-9678.
5. Aminov A. S., Shukurov A. R., Mamurova D. I. Problems Of Developing The Most Important Didactic Tool For Activating The Learning Process Of Students In The Educational Process //International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2021. – T. 25. – №. 1. – C. 156-159.
6. Mamurova D. I., Ibatova N. I., Badiyeva D. M. The importance of using the key-stadi innovative educational technology method in training the image module of geometric shapes //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 1. – C. 335-338.
7. Djalolovich, Yadgarov Nodir, et al. "Improving the professional training of fine art teachers." *European science* 2 (58) (2021): 44-46.
8. Khakimova, G. A., Azimova, M. B., Tuxsanova, V. R., & Ibatova, N. I. (2021). DIDACTIC PRINCIPLES IN TEACHING FINE ARTS. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government* Vol, 27(2).
9. Ilkhamovna I. S. DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES IN FINE ARTS LESSONS //International conference on multidisciplinary science. – 2023. – T. 1. – №. 6. – C. 104-107.
10. Ilkhamovna I. S. THE ESSENCE AND THEORETICAL BASIS OF THE CONCEPT OF CREATIVE ABILITY //Role of Exact and Natural Sciences During the Renaissance III. – 2023. – C. 69-71.

11. Мамурова Д. И. и др. УЧЕБНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СТУДЕНТОВ ПО РЕШЕНИЮ РАЗЛИЧНЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В РАЗВИТИИ ПРОСТРАНСТВЕННОГО ВООБРАЖЕНИЯ СТУДЕНТОВ // *European science*. – 2021. – №. 2 (58). – С. 29-31.
12. Аминов, А. Ш., Мамурова, Д. И., Маматов, Д. К., & Собирова, Ш. У. (2021). Проблемы организации самостоятельной работы студентов в высших учебных заведениях. *European science*, (2 (58)), 77-79.
13. Собирова, Ш. У., Ядгаров, Н. Д., Мамурова, Д. И., & Шукуров, А. Р. (2021). Основы, цели и задачи обучения изобразительному искусству. *European science*, (2 (58)), 62-65.
- стонова, Г. Р., Ибадуллаева, Ш. И., Мусинова, А. С., & Авлиякулова, Н. М. (2021). Дидактические принципы обучения изобразительному искусству в
15. Авлиякулова, Н. М., Остонова, Г. Р., Ибадуллаева, Ш. И., & Мусинова, А. С. (2021). Роль культуры и искусства в подготовке будущих учителей к творческой деятельности. *European science*, (2 (58)), 95-97.
16. Ёbatova, Nigora. "TALABALARNING BADIY-OBRAZLI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." *Science and innovation in the education system* 3.6 (2024): 59-65.
17. Ёbatova, Nigora. "QALAMTASVIR FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARBLIGI." *Models and methods in modern science* 3.7 (2024): 17-21.
18. Ёbatova, Nigora. "AXBOROT-KOMMUNIKATSION TA'LIM MUHITIDA RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN TOPSHIRIQLAR." *Current approaches and new research in modern sciences* 3.5 (2024): 163-169.
- е
19. Мусинова, Азиза Садиковна. "Развитие художественно-творческих способностей на основе изучения и освоения различных техник и материалов." *Молодой ученый* 11 (2016): 1612-1615.
20. Мусинова, Азиза. "Роль декоративно-прикладного искусства в воспитании подрастающего поколения." *World Science: problems and innovations*. 2019.

Ш
к
о
л
а

х

Е

и